

Andijon davlat tibbiyot instituti, anatomiya, operativ jarroxlik va topografik anatomiya kafedrası



Kafedra mudiri, falsafa fanlar nomzodi,

Dotsent: ZAFAR ABDURAXMANOVICH QAHAROV

Ish vaqti: 8.00 – 17.00.

Tel: +99897-899-96-19

e-mail kaharov@umail.uz

ANATOMIYA, OPERATIV JARROXLIK VA TOPOGRAFIK ANATOMIYA KAFEDRASINI

1955-yilda Andijon davlat tibbiyot instituti tashkil topgandan so`ng, dastlabki kafedralardan bolib, normal anatomiya kafedrası tashkil etilgan. Birinchi kafedra mudiri, professor I.G.Mardeshteyn asos solgan. Keyingi yillarda M.S.Soatov, S.I.Kasakin, Q.A.Xoliqov, A.U.Asranov, Z.A.Qaxarov, 2008 - yildan 2013 - yilgacha A.I.Xatamov boshqargan.

Operativ jarrohlik va topografik anatomiya kafedrasini S.S.Arapov, T.M.Qoriev, B.F.G`aniev, V.V.Volkov, V.I.Ustinov, 1978 - yildan 2013 - yilgacha professor I.I.Qosimxodjaev boshqargan.

2013- yildan Anatomiya, OJTA kafedrası deb nomlangan. 2013- yildan 2014 -yilgacha Anatomiya, OJTA kafedrası mudiri lavozimida t.f.d. A.I.Xatamov ishlagan. 2014 - yildan 2016 - yilgacha dotsent G.J.Ulug`bekova boshqargan.

2016 - yildan hozirgacha dotsent Zafar Abduraxmanovich Qaxarov Anatomiya, OJTA kafedrası mudiri lavozimida ishlab kelmoqda.

Qaharov Zafar Abduraxmanovich 1984-yilda Andijon davlat tibbiyot institutini

Anatomiya, operativ jarroxlik va topografik anatomiya kafedrasiga aspiranturaga kirdi va 1988-yilda "Mikrotopografiya odinochnix limfoidnix uzalokov mochevivodyashix

putey cheloveka v postnatalnom ontogeneze" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Keyinchalik assistent, 1991 yildan dotsent va 2017 yil fevral oyidan kafedra mudiri lavozimida ishlab kelmoqda. Z.A.Qaharov tomonidan jurnal va to`plamlarda 100 dan ziyod ilmiy maqola va tezislar, 30 dan ortiq o`quv-uslubiy qo`llanmalar e'lon qildi, respublika va hamdo`stlik mamlakatlarida o`tkazilgan ilmiy anjumanlarda ishtirok etib kelmoqda. U 1 ta monografiya muallifidir.

Kafedrada o`qitilayotgan fanlar

Bakalavriat

Анатомия - davolash, pediatriya, kasb ta'limi, tibbiy profilaktika, stomatologiya 1-2 bosqich rus guruhi talabalari OXI 1 bosqich milliy va rus guruhi talabalari

ОЖТА --- davolash, pediatriya, kasb ta'limi, stomatologiya 3 bosqich milliy va rus guruhi talabalari, magistratura va klinik ordinatura mutaxassisliklari

Kafedra professor-o`qituvchilarining ro`yxati

| | F.I.Sh. | Lavozimi | Ilmiy darajasi va unvoni | e-mail |
|-----|-------------------------|------------------|---------------------------------|-----------------------------|
| 1. | Qaxarov Z.A. | Kafedra mudiri | dotsent | <i>kaharov@umail.uz</i> |
| 2. | Sattibaev I.I. | Katta o`qituvchi | t.f.n. | <i>sattibaev@umail.uz</i> |
| 3. | Djalalov R.J. | dotsent | t.f.n. | <i>djalalov@umail.uz</i> |
| 4. | Salieva M.Yu. | Katta o`qituvchi | - | <i>salieva@umail.uz</i> |
| 5. | Rustamova X. | assistent | - | <i>rustamova@umail.uz</i> |
| 6. | Axmedov U.B. | assistent | - | <i>axmedov@umail.uz</i> |
| 7. | Abdunabieva X.M. | assistent | - | <i>abdunabieva@umail.uz</i> |
| 8. | Axmedov Sh.S. | assistent | - | <i>chavkatbek@umail.uz</i> |
| 9. | Ulug`bekova G.J. | dotsent | dotsent | <i>gulrux@umail.uz</i> |
| 10. | Niyazov T.N. | Katta o`qituvchi | - | <i>niyazov@umail.uz</i> |
| 11. | To`lanova D.Ya. | assistent | - | <i>tulanova@umail.uz</i> |
| 12. | Ubaydullaev R.L. | assistent | t.f.n. | <i>ubaydullaev@umail.uz</i> |
| 13. | Zokirov F.A. | assistent | - | <i>zokirov@umail.uz</i> |

Kafedra professor-o'qituvchilari



Kafedraning ilmiy faoliyati

Talabalarning anatomiya va operativ jarrohlik topografik anatomiya fanidan bilim va ko`nikmalarini oshirish, talabalarga nazariy bilim berish bilan birga ularni klinik fanlar bilan bog`liq bilimlarini mustahkamlash . Anatomiya fani a'zo va tizimlarni tuzilishini o`rgatsa, OJTA fani a'zo va tizimlarning topografiyasini o`rgatadi.

Kafedra assistentlari Axmedov U.B., Axmedov Sh.S. Andijon shahri sharoitida yashovchi maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishining

antropometrik ko`rsatkichlari bo`yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Kafedra o`qituvchilari tomonidan bir qator o`quv – uslubiy qo`llanmalar chop etildi. Shuningdek, turli mavzularda respublika, viloyat, institut miqyosida o`tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanlarda bir nechta maqola va tezislari bilan ishtirok etdilar.

Kafedrada 5 nafar fan nomzodlari faoliyat ko`rsatib kelmoqda. Kafedramizda har bir fan bo`yicha to`garaklar faoliyat ko`rsatadi. Har bir to`garakda «Ustoz-shogird» tizimi yaxshi yo`lga qo`yilgan. Bunda malakali o`qituvchilar o`zlarining ko`p yillik tajribalarini yosh mutaxassislariga o`rgatish, darslarini nazorat qilish, bevosita dars jarayonlarini tahlil qilish va metodik-didaktik maslahatlar berish orqali oshirib kelmoqdalar. Kafedra kutubxonalarida 80 dan ortiq adabiyotlar, 25 dan ziyod elektron darsliklar, ma'ruza-prezentatsiyalar, o`quv filmlar mavjud.

Kafedraning o`quv-uslubiy ishlari:

Hamma amaliy mashg`ulotlar bo`yicha metodik qo`llanmalar mavjud. Fanlar bo`yicha o`quv-uslubiy majmua 3 ta tilda yaratilgan va yangilanib borilmoqda.

Har yilgi o`quv yilida talabalar kafedramizda faoliyat ko`rsatayotgan anatomiya va OJTA fanidan fakultetlararo fan olimpiadalarida faol qatnashib, yaxshi natijalarga erishib kelmoqdalar. Iqtidorli talabalar bilan ishlash to`g`risida Nizom va reja asosida kafedra professor-o`qituvchilari tomonidan sezilarli darajada faoliyat olib borildi. Jumladan, kafedra qoshida "Bilimdonlar" TIJ tashkil qilingan bo`lib, uning rahbari assistent Sh.S.Axmedov tasdiqlangan rejada bir qator ishlarni amalga oshirdi.

Bugungi kunda zamonaviy ta'lim talablaridan kelib chiqib, kafedrada o`qitiladigan fanlarning samaradorligini oshirishda ilg`or pedagogik texnologiyalardan foydalanilmoqda. Kafedraga barcha qulayliklarga va afzalliklarga ega bo`lgan anatomik stol institut tomonidan olib berildi. Kafedrada faoliyat olib borayotgan 12 nafar pedagoglar o`quv mashg`ulotlarini yuqori saviyada tashkil qilishga harakat qilib, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanmoqdalar.

Pedagoglarimiz o`z amaliy faoliyatlarida "Bo`sh xalqa", "Klaster", "Sinkveyn", "Baliq skeleti", "Qor parcha" "Assisment" va boshqa texnologiyalaridan foydalangan holda tashkil qilinmoqda. Bu noan'anaviy usullar asosida talabalar mustaqil holda ko`nikmasini shakllantirmoqda.

O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni joriy etilishida talabalarning yosh xususiyatlari, bilimga bo'lgan iqtidori va o'zlashtirishlari inobatga olinmoqda. Chunki talaba-yoshlar qo'yilayotgan muammolarga to'g'ri yondashib, munosabat bildira olishlari, fikrlarini asoslay olish malakalarini tarbiyalash-zamonaviy darslarimizning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Kafedraning ma'naviy-ma'rifiy ishlari:

Kafedrada haftaning har seshanba kunligida ma'naviyat soati o'tkazilmoqda. Ma'naviyat xonasi talab darajasida jihozlangan. Prezident M.Mirziyoevning asarlari, o'zbek adiblarining noyob asarlari bilan boyitilgan. Kafedra professor – o'qituvchilaridan bir guruhi pediatriya va kasb ta'limi yo'nalishlari guruhlariga murabbiylik qilmoqdalar. Pediatriya fakulteti 205 guruhiga katta o'qituvchi M.Yu.Salieva, 206 guruhiga assistent Sh.S.Axmedov, kasb ta'limi 101, 102 guruhlariga dotsent G.J.Uluq`bekova, kasb ta'limi 201, 202 guruhlariga assistent X.M.Abdunabievalar murabbiydirlar. Guruh murabbiylari har seshanba kuni ma'naviyat va murabbiylik soatlarini o'tkazmoqdalar. Har bir talabaning yashash joylariga borib ularning yashash sharoitlari bilan tanishmoqdalar.